

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH SOHASIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIGI TAHLILI

АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ОБЛАСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТИ

ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF PROVIDING PRIVACY

Abdullahayev Akmaljon Yo'lchiboyevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

"Tergov faoliyati" kafedrasи katta o'qituvchisi

Ahmadov Anvarjon Turg'un o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o 'quv kursi kursanti

Abdurahmonov Toshmurod Dilmurodjon o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

1-o 'quv kursi kursanti

Annotation: maqolada bugungi kunda O'zbekiston respublikasi qonunchiligidagi mavjud bo'lgan shaxsga doir ma'lumotlar tizimi, shaxsiy hayot daxlsizligining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu sohadagi muammo va kamchiliklar, olib borilishi lozim bo'lgan tizimli va izchil ishlar, istiqboldagi vazifalarning mazmun mohiyati yoritilgan.

Аннотация: в статье описывается система персональной информации, существующая в законодательстве Республики Узбекистан на сегодняшний день, специфические черты неприкосновенности частной жизни и проблемы и недостатки в этой сфере, систематическая и последовательная работа, которую необходимо провести, и содержание задач на будущее.

Abstract: the article describes the personal information system that exists in the legislation of the Republic of Uzbekistan today, the specific features of privacy and problems and shortcomings in this area, the systematic and consistent work that needs to be carried out, and the content of future tasks.

Kalit so'zlar: shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsga doir ma'lumotlar, shaxsga doir ma'lumotlar mexanizmi, shaxsiy hayot daxlsizligin buzish, xalqaro huquq.

Ключевые слова: неприкосновенность частной жизни, неприкосновенность частной жизни, личная информация, механизм личной

информации, нарушение неприкосновенности частной жизни, международное право.

Key words: privacy, privacy, personal information, personal information mechanism, violation of privacy, international law.

Inson tug‘ilganidan boshlab u haqidagi ma’lumotlar uning hayoti davomida biror-bir joyda «iz» qoldiradi. Shifoxonada, FHDYo bo‘limlarida, bog‘chada, mактабда, banklarda va boshqa tashkilotlarda, kundalik foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda yoki ma’lumotlar bazalarida shaxsning foto, video, audio, yozma yoki elektron shaklidagi shaxsga doir ma’lumotlar mavjud. Shu sababli ham tergov organiga fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashib uning telefon so‘zlashuvini eshitish bo‘yicha o‘zi mustaqil qaror qabul qilish vakolatini boshqaga berib bo‘lmaydi. Albatta tiyib turuvchi mexanizmlar kerak.

Endilikda bu tartibga solinib, tintuv va telefon eshitish doirasi ham sud tomonidan belgilanishi, bunga qay darajada zaruriyat borligi xolis va mustaqil sudya tomonidan baholanishi belgilanmoqda. *Yangilanayotgan Konstitutsiya, 31-modda: Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron xabarlari hamda boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.*

Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni himoya qilish, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi. Uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Bir so‘z bilan aytganda shaxsiy hayot daxlsizligi Konstitutsiyada mustahkamlanmoqda. Har bir fuqaro, har bir oila o‘zining shaxsiy hayoti va oilaviy sirini himoya qilish, o‘z mulkiga ega bo‘lishi va uning daxlsizligiga o‘zga shaxslarning tajovuzidan xavotirsiz hayot kechirishi lozim. Telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan axborot va ma’lumotlarni uzatish, tarqatish jarayonlari osonlashdi va xalq ichida ommaviylashdi.

Endilikda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari, yozishmalari va biometrik ma’lumotlarini saqlash va tarqatilishida tashqi ta’sirlardan himoya zarurati yuzaga keldi. Mazkur daxlsizlik huquqlari konstitutsiyaga kiritilmoqda va shaxsiy, oilaviy sir va ma’lumotlar noqonuniy to‘planishi va tarqalib ketishi cheklanmoqda. Bundan tashqari Konstitutsiya loyihasida uy-joyga bo‘lgan huquq daxlsiz etib belgilanmoqda.

Hech kim sudning qarorisiz uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi hamda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko‘rgan zararlarning o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishi mustahkamlanmoqda. Mazkur normani Konstitutsiyaga kiritilishi bir necha yillardan buyon jamiyatimizda o‘tkir muammolardan biriga aylangan «snos» bilan bog‘liq muammoga nisbatan xalqparvar, mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi oqilona yechim ekanligini alohida qayd etish lozim.

Ommaviy kommunikatsiyalar rivojlanishi bilan bugun ijtimoiy tarmoq va internet saytlarida shaxsning shaxsiy va oilaviy siriga oid ma’lumotlari, ming afsuski, uning roziligesiz olinishi, tarqatilishiga guvoh bo‘lyapmiz. Natijada ko‘pchilik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘z shaxsiy hayotiga, shaxsiga oid ma’lumotlarning tarqalishiga oid huquqbazarlikdan jabr ko‘rib qolmoqda. Shu sababli mazkur masalalarga fundamental yechim yasash maqsadida Konstitutsiyaga alohida normalar kiritilishi davr taqazosi deyish mumkin. Insonlarning yashash huquqiga taalluqli eng asosiy talablar qatoridagi uy-joy mol-imulkiga tajovuzdan himoyada yashash huquqi, shaxsiy ma’lumotlar sirligi har bir fuqaroning hayotidagi birlamchi zaruratlardan biri sifatida daxlsizlik toifasiga kiritilmoqda va kafolatli himoyaga olinmoqda.

Shaxsga doir ma’lumotlar – inson haqidagi har qanday ma’lumotlardan iboratdir. Shaxsga doir ma’lumotlar uch turga:

birinchidan, umumiylar ma’lumotlar;

ikkinchidan, maxsus ma’lumotlar;

uchinchidan, biometrik ma’lumotlarga bo‘linadi.

Umumiylar ma’lumotlar qatoriga insonning ism-familiyasi, pasporti va boshqa shaxsiy hujjalari idagi qaydlar, tug‘ilgan sanasi va joyi, e-mail manzili, yashash, o‘qish va ishlash joylari, oilaviy, ijtimoiy va mulkiy holati, qaerda ta’lim olgani, qaysi kasb egasi ekanligi, daromadi qanchaligi kabi ma’lumotlar kiradi.

Telefon raqamlari faqat egasining ism-familiyasi bilan birga qayd etilgan hollardagina shaxsga doir ma’lumotlar toifasiga mansub bo‘ladi. Transport vositasining davlat raqami, kommunal-turarjoy xo‘jaligining hisob raqami kabilar esa shaxsga doir ma’lumot hisoblanmaydi. Chunki ulardan birinchisi – bevosita avtomobilga tegishli bo‘lsa, ikkinchisi – uy-joyga taalluqlidir.

Maxsus ma’lumotlar deganda, shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy va falsafiy qarashlari, sog‘ligining holati, intim, ya’ni maishiy hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlar tushuniladi.

Biometrik ma’lumotlar – insonning shaxsini aniqlash imkonini beradigan fiziologik va biologik xususiyatga ega shaxsiy ma’lumotlardir. Masalan, shaxsning DNKsi, ovozi, ko‘z qorachig‘i, barmoq izlari, yuz qiyofasi, bo‘yi, vazni bilan bog‘liq ma’lumotlar shular jumlasiga kiradi.

“Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish” nima degani?

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish – shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan amalga oshiriladigan har qanday xatti-harakatlarni o'zida qamraydi. Shaxsga doir ma'lumotlarni:

- toplash;
- yozish;
- tizimlashtirish;
- jamg'arish;
- saqlash;
- aniqlashtirish – yangilash va o'zgartirishlar kiritish;
- ko'chirma olish;
- foydalanish;
- uzatish, ya'ni tarqatish, taqdim etish, tanishish imkonini yaratish;
- shuningdek, shaxssizlantirish;
- bloklash;
- o'chirib tashlash;
- yo'q qilish shular jumlasidandir.

Misol uchun, ish beruvchi o'z xodimi bilan mehnat shartnomasini tuzishi asnosida kadrlar bo'limida o'sha xodimning shaxsiy hujjatlaridan nuxalar jamlangan "papka" yuzaga keladi. Demak, ish beruvchi shaxsga doir ma'lumotlarni toplash, yozish va saqlash bilan bog'liq harakatlarni amalga oshiradi. Ish beruvchi o'z xodimining tashrif qog'oziga buyurtma berish uchun uning shaxsga doir ma'lumotlarini bosmaxonaga yubordi, deylik. Bunda u shaxsga doir ma'lumotlarni uzatgan bo'ladi. Yana bir misol: sotuvchi o'z xaridorlariga oid ma'lumotlar jamlangan hujjatlarni yoqib yuborar ekan, shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qiladi. Yoki bo'lmasa, sotuvchi va xaridor Internet orqali mahsulot savdosi jarayonida sayt egasiga o'zlarining shaxsga doir ma'lumotlari – ism-familiya, manzil, pochta va telefon raqamlarini taqdim etganiga to'xtalaylik. Bu ma'lumotlar o'sha saytning elektron xotirasida saqlanadi – demak, sayt egasi shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozish va saqlash bilan shug'ullangan bo'ladi. Ushbu misollardan yana bir oddiy haqiqat ayon bo'lmoqda. Ya'ni, shaxsga doir ma'lumotlar nafaqat qog'ozda, balki elektron manbalarda ham saqlanishi mumkin. Xalqaro shartnomalarning aksariyatida shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni uning roziligesiz noqonuniy yig'ish yoki hammaga oshkor qilish yoxud bu xabarlarni jamoat oldida so'zga chiqishda, ommaviy namoyish qilinuvchi asarda yoki ommaviy axborot vositalarida tarqatish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanishini ko'zda tutadigan tegishli normalar mavjud.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 12-moddasiga muvofiq: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomusi va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas". O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 27-moddasida: “Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas”, deb belgilangan.Ushbu modda matnidagi aynan “shaxsiy hayotiga aralashishdan himoya” hamda “yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas” degan iboralar zamirida shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishga oid konstitutsiyaviy talablar o‘z mujassamini topgan. Shu ma’noda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohot asnosida ayni moddani inson huquqlarini, jumladan, shaxsga doir ma’lumotlarni yanada keng darajada himoyalaydigan normalar bilan boyitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, umumxalq muhokamasidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun loyihasida shu modda quyidagi mazmunda taklif etilmoqda: “27-modda. Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsiz bo‘lishi, shaxsiy va oilaviy siri, o‘z sha’ni va qadr-qimmati himoya qilinishi huquqiga ega. Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni himoya qilish huquqiga ega. Har bir shaxs yozishmalarni, telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni, pochta-telegraf jo‘natmalarini hamda boshqa xabarlarni amalga oshirish erkinligi va ularning sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda, sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Sudning qarorisiz uy-joydan mahrum etilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Hech kim shaxsning uy-joyiga yoki boshqa mol-mulkiga qonunda nazarda tutilganidan boshqacha holda va tartibda kirishga, tintuv o‘tkazishni yoki ko‘zdan kechirishni amalga oshirishga haqli emas”.

Tabiiyki, yaqin kelajakda Konstitutsiyamizga kiritiladigan yangilanishlar asosida milliy qonunchilik ham takomillashtiriladi. Hozircha amaldagi qonunlarimizda shaxsga doir ma’lumotlar masalasi qay taxlit o‘z aksini topgan? Bu o‘rinda mamlakatimizda, birinchi navbatda, 2019 yil 1 oktyabrdan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirganini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Bu qonunga binoan: “Shaxsga doir ma’lumotlar jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikasiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi”.

Qonuning ayrim eng muhim normalariga to‘xtalamiz. Xususan:

- Hukumat huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilangan;
- shaxsga doir ma’lumotlar bazalari davlat reestrida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim;
- davlat shaxsga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini kafolatlaydi;

- jismoniy shaxsning roziliginiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagani holda shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbekiston Prezidenti 2021 yil 14 yanvar kuni «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi qonunga qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunni imzoladi. Shu asosda amaldagi qonun «O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashning alohida shartlari» nomli 27-1-modda bilan to‘ldirildi. Bunga qadar – 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasida shaxsning axborot borasidagi xavfsizligiga oid normalar belgilangan. Xususan: “Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish yo‘li bilan ta’minlanadi. Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma’lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi. Jismoniy shaxsning roziliginiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonlari so‘zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to‘plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno. Jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi axborotdan ularga moddiy zarar va ma’naviy ziyon yetkazish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishiga to‘sqinlik qilish maqsadida foydalanish taqiqlanadi. Fuqarolar to‘g‘risida axborot oluvchi, bunday axborotga egalik qiluvchi hamda undan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar bu axborotdan foydalanish tartibini buzganlik uchun qonunda nazarda tutilgan tarzda javobgar bo‘ladilar. Ommaviy axborot vositalari axborot manbaini yoki taxallusini qo‘ygan muallifni ularning roziliginiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallif nomi faqat sud qarori bilan oshkor etilishi mumkin”.

Bugungi globallashuv jarayonlarida shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziliginiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish holatlari bot-bot kuzatilmoqda. Ayrim ommaviy axborot vositalari yoki ba’zi bir blogerlar shaxsning obro‘sisi, sha’ni va qadr-qimmatini tushiradigan axborot tarqatganligi uchun sud oldida javobgar bo‘layotgani ham statistik ma’lumotlarda ko‘rinib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

5. “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son farmoni.
6. Bola huquqlari. Yuridik Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik G‘. Abdumajidov tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2008 yil.
7. Bolalarni himoya qilish. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma. T.: UNICEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. — B. 163.
8. Bolalarni himoya qilish. Parlament a’zolari uchun qo‘llanma. T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006 yil.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

Elektron manbalar:

- 1.<https://lex.uz/>
- 2.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz>
- 3.<http://www.Oliysud.uz/>
- 4.<https://ziyonet.uz/>
- 5.<http://pravo.gov.ru/>
- 6.<http://www.juvenilejustice.ru>